



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HAY'ATI MAJLISINING BAYONNOMASI

2023-yil 23-yanvar

4/23-son

Toshkent shahri

**Raislik qildi:** A.Tashkulov – adliya vaziri.

**Hay'at a'zolari:** M.Ikramov, X.Meliyev, A.Karimov, A.Muhammadiev, T.Abdusattarov, M.Allakulihev, Sh.Yuldasheva, A.Ro'ziyev.

**Qatnashdilar:** Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari rahbarlari.

**Hay'at kotibi:** R.Eshboyev.

### Kun tartibi :

#### **O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2023-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi loyihasi muhokamasi to'g'risida.**

(A.Tashkulov, M.Ikramov, X.Meliyev, A.Karimov, A.Muhammadiev, T.Abdusattarov, M.Allakulihev, Sh.Yuldasheva, A.Ro'ziyev, A.Tashkulov)

### Majlisning borishi:

Kun tartibidagi masala hay'at majlisida atroflicha muhokama qilindi.

Ish reja loyihalari yuzasidan hay'at a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirdi. Bunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2023-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan ish rejasi loyihasida nazarda tutilgan tadbirlarning muddatlari aniq belgilanib, maqsadga muvofiq emas deb topilgan tadbirlar chiqarib tashlandi.

Hay'at raisi loyihada belgilangan tadbirlarning ijrosiga mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linma rahbarlaridan ish reja matni bo'yicha va unda belgilangan vazifalarning muddatida ijro eta olishligini, shuningdek ish reja loyihasi bo'yicha taklif va mulohazalar mavjud yoki mavjud emasligini so'radi.

Loyihada belgilangan tadbirlar uchun mas'ul ijrochilar barcha tadbirlarni o'z vaqtida va to'liq bajara olishlari hamda taklif va mulohazalar yo'qligini bildirdilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Adliya vazirligi hay'ati

## **Q A R O R Q I L A D I :**

1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2023-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo‘ljallangan ish rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tegishlicha vazir o‘rnbosarlari hamda Tashkiliy-nazorat va strategik rejalashtirish boshqarmasi boshlig‘i zimmalariga yuklansin.

**Hay’at raisi,  
Vazir**



**A.Tashkulov**